

**SHARQ ALLOMALARNING ASARLARIDA MUDARISSLAR MEHNATI
TO'G'RISIDA ILG'OR PEDAGOGIK FIKLAR**

Muhammadiya Zarnigor Qahramon qizi

Berdiyeva Mahfuza Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 4-bosqich

Mahfuzaberdiyeva27@gmail.com

Tel raqam: 95-851-17-68

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq allomalarning asarlari, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari bayon etilgan. Shu bilan birga ularning o'qituvchi va o'quvchilar uchun g'oyatda zarur bo'lgan g'oyalarga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari Farobiy asarlarida inson kamoloti ta'lim tarbiyasi haqida kelajak rivoji uchun muhimligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, mudarris, fikr, fan, asar, Sharq allomlari, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy

Abstract: This article describes the works of Eastern scholars and their thoughts on education. At the same time, it touches upon ideas that are extremely necessary for teachers and students. In addition, the works of Farabi emphasize the importance of education for the future development of human perfection

Keywords: education, teacher, thought, science, work, Eastern scholars, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Biruni.

Аннотация: В статье описываются труды восточных ученых и их взгляды на образование. В то же время они затронули идеи, которые крайне необходимы учителям и ученикам. Кроме того, в своих работах Фараби подчеркивает важность образования для развития человека и будущего развития.

Ключевые слова: образование, учитель, мысль, наука, труд, восточные учёные, Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Бируни..

KIRISH



Sharq mutafakkirlari tarix davomida ilm-fan, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya va ayniqsa ta'lim-tarbiya sohasida katta iz qoldirgan. Ularning asarlarida ilm o'rgatish, tarbiya berish va ayniqsa, mudariss — ya'ni o'qituvchining jamiyatdagi o'rni haqida chuqur fikrlar ilgari surilgan. Bu fikrlar nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi zamonaviy pedagogika uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan.

“Mudariss” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “ta'lim beruvchi”, “dars o'rgatuvchi” degan ma'noni anglatadi. Islom sivilizatsiyasi rivojlangan davrlarda mudarisslar madrasa va ilmiy markazlarda yosh avlodga fan asoslarini o'rgatgan, shuningdek, axloqiy-ma'naviy tarbiyani ham berishgan. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surilgan.

610 yillarga kelib yaratilgan Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi. «Qur'oni Karim»dagi ta'lim - tarbiyaga oid ulug' xazina Al-Buxoriy hazratlarining Hadislarida beriladi. Jumladan, (38-hadis) ”Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz”: (626-hadis) ”Har bir go'dak Islom tabiatida tug'iladi, so'ng ota-onasi uni yo yahudiy qiladi, yo nasroniy qiladi, yo majusiy qiladi”: (136-hadis) ”Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi”. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham farzand tarbiyasiga e'tibor qaratilgan. Bu asarda ota-onaga bo'lgan hurmat , "Hunar afzunligi. Baland qadr va oliytab bo'lmoqda zikrida" "Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida" "Farzand parvarish qilmoq zikrida"do'st tanlashda adashmaslik, ustoz shogird o'rtasida aloqalar o'quvchi o'qiganda o'rnak oladigan hikoyalar keltirilgan.

ASOSIY QISM

Mudarisslar mehnati har doim hurmat va ehtiromga loyiq deb qaralgan. Ular ilm tarqatish, yosh avlodni tarbiyalash, axloqiy va ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirishda asosiy vositachi sifatida ko'rilgan. Aynan shu jihatlar, ya'ni o'qituvchi mehnatining qadri, ularning bilim berishdagi uslubi va jamiyatdagi o'rni, Sharq allomalari tomonidan asarlarida chuqur ifodalangan.



Sharq allomalarini misol qiladigan bo'lsak, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-G'azzoliy kabi buyuk mutafakkirlar kiradi. Ular Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va boshqa hududlarda yashab, o'z davrining ilg'or ilmiy maktablariga asos solganlar.

Al-Forobiy (873–950) – Sharq mamlakatlarida ulug'lab "Al Muallim as soniy" ya'ni Aristoteldan keyin “Ikkinchi muallim” deb e'tirof etilgan faylasuf deb ataganlar. Buyuk olimga bunday baho berish bejiz emas, albatta, u fanning hamma sohalarini o'rganishga alohida e'tibor berdi. Tarixshunos olimlarning taxminicha, Forobiy dunyo tillaridan 70 tasini bilgan. U har bir inson ahliga murojaat qilib, ayniqsa, ota-ona va ustoz-murabbiylarga qarata shunday degan edi: "Qanday qilib ta'lim berish yoki ta'lim olish, qanday qilib o'z fikrini ifodalash, bayon qilish, fanlar ichidagi eng birinchi fan -til haqidagi fandir ikkinchi fan grammatika, uchinchi fan mantiq, to'rtinchi fan poetikaligini tasdiqlayman". deb aytgan. 'lim-fan tarbiya va axloqiy yetuklik haqida ko'plab asarlar yozgan. Forobiyning har bir asaridagi asosiy g'oya inson komoloti uning yuksak axloqiyligidir. Uning fikricha, aqliy bilimni peshlash, axloqiy barkamol barkamollikni tarbiyalaydi: inson yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilganidek, aqliy bilimga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi intilyotgan songgi darajadagi baxt-soadatga etishadi. Baxt-soadat insonga osonlikcha berilmaydi. Baxt va mazmunli hayot uchun, dastlab, yoshligidan boshlab ilm-himatni o'rganmo'gi lozim. Buning uchun sog'-salomat va odob-axloqli bo'lishi, so'zining ustidan chiqishi, yomon ishlardan o'zini saqlashi, har qanday xiyonat, makr-hiyladan uzoq yurishini ta'kidlaydi. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatning yuksalishi ustozlar va ilm ahlining yetukligiga bog'liq deb ko'rsatiladi. Bu albatta, bejiz emas. Negaki ustozlar va ta'lim beruvchilar qancha yaxshi bilsa shuncha jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Abu Nasr al-Forobiy o'zining falsafiy va pedagogik qarashlarida ustoz-shogird munosabatiga alohida e'tibor bergan. Unga ko'ra, haqiqiy ustoz – bu nafaqat bilim beruvchi, balki ruhiy tarbiya, axloqiy poklik va hayotiy tajriba manbai hisoblanadi. Uning fikricha, shogirdni to'g'ri yo'lga boshlashda ustoz namunali shaxs bo'lishi kerak. Albatta, shogird ustozdan ibrat olgan holda yaxshi o'qishi lozim. Zero, "Ustozdan o'tmagan shogird, shogird emas" deyilar. Har bir



ishda ustoz ko'rishi kerak. "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" deydi dono xalqimiz. Forobiyning bu asarida yana ideal jamiyat namunasi sifatida ilm-fan rivojlangan, aholisi tarbiyalangan va rahbarlari dono bo'lgan jamiyatni ko'rsatadi. Bu yerda ustozlarning roli alohida ta'kidlanadi — ular jamiyatning ma'naviy-axloqiy tayanchi sifatida qaraladi. Uningcha, ta'lim berish jarayoni faqat bilim o'rgatish emas, balki kishining ichki dunyosini boyitish, unga ezgulik, sabr, halollik kabi qadriyatlarni singdirishdir. Bu esa zamonaviy pedagogikaga ham to'la mos keladi..

Ibn Sino (980–1037) – buyuk tabib va faylasuf. U o'z asarlarida bilim olish va uni boshqalarga o'rgatish tamoyillarini chuqur yoritgan. Ustozning bilimdonligi, ma'naviy tozaligi va sabr-toqati haqida ko'plab fikrlar bildirgan. Ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va ta'lim jarayonidagi yondashuvlarini keng yoritgan. Unga ko'ra, bilim beruvchi inson – bu avvalo o'z bilimni doimiy ravishda oshiruvchi, har bir shogirdga individual yondashuvchi va bilimni tushunarli qilib yetkazuvchi bo'lishi lozim. Olim ta'lim va tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondashgan. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi ko'p fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Ibn Sino o'zining o'rta asr "yetti ozod san'ati tizimidan farq qiladigan tarbiya tizimiga odob, falakiyotshunoslik, tibbiyot, mantiq, falsafa, tabiatshunoslik fanlarini kiritgan. Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat berib "Tadbir ul manozil" asarining maxsus bo'limni ana shu masalaga bag'ishlagan. Kitobning "Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash" bo'limida bolani maktabga jalb qilish haqida to'xtalgan. Uning ta'kidlashicha, maktabga barcha kishilarning bolalari jalb etilishi va hamma bolalar birga o'qitilishi hamda tarbiyalanishi lozim. U bolani uy sharoitida yakka O'qitishga qarshi bo'lgan bolani maktabda jamoa bilan o'qitishning tarafdori bo'lgan. Bu haqiqatdan holi emas. O'quvchi jamoa bilan o'qilsa dars jarayonida zerikmaydi. Raqobat bo'lgan joyda albatta o'sish bo'lgani kabi tengdoshlari bilan birgalikda o'qisa yaxshi ta'lim oladi. Bundan tashqari bir biri bilan o'zaro muloqot almashish jarayonida fikrlar doirasining kengayishi uzining mustaqil fikrlarini bayon qilishda tortinmasligi va nutqi yaxshi rivojlanishiga ham asos bo'ladi.



Ibn Sino “Donishnoma” va “Kitob ash-Shifo” asarlarida o‘quv jarayonining bosqichlarini belgilab bergan. U o‘quvchining yoshiga qarab materiallarni tanlash, amaliy mashqlar orqali bilimni mustahkamlash, so‘roq-javob, misollar bilan o‘rgatish metodlarini tavsiya etgan. Bu jihatlar bugungi kunning zamonaviy pedagogik metodlariga hamohangdir. Ibn Sino bolani bir yo‘nalishda olib bormaslikni har darsda yangicha usuldan foydalanish haqida ham fikr yuritgan. Bir xillikdan o‘quvchi darsda tez zerikishi va dars jarayoning samaradorligini pasaytirishga sabab bo‘ladi deb ta’kidlagan.

Shuningdek, Ibn Sino o‘qituvchining axloqiy pokligi, so‘z va amal birligi, mehribonligi va mas‘uliyatlilik haqida ham ko‘plab fikrlar bildirgan. Uning pedagogik qarashlari bugungi o‘qituvchilar uchun ham ibrat manbai bo‘la oladi.

Beruniy (973–1048) – ensiklopedik bilimga ega alloma bo‘lib, ilmning qadri, uni o‘rganish va boshqalarga o‘rgatish jarayonida ustozning o‘rniga alohida urg‘u bergan. Abu Rayhon Beruniy ilm-fanni insoniyat taraqqiyotining asosiy kuchi deb bilgan. U shogirdga bilim berishda sinchkovlik, mantiqiy izchillik, hayotiy misollar orqali tushuntirish usullarini qo‘llagan. Beruniy ilmsiz kishilarning ko‘ngli xurofotga moyil bo‘lishini yolg‘on xuddi suv yuzidagi ko‘rikdek yo‘q bo‘lib ketishini ta’kidlab, ana shu fikrlarning to‘g‘riligini qator asarlarida turli voqea va hodisalarni bayon qilish orqali isbotlangan. Beruniyning ilmiy merosida ko‘plab tabiatshunoslik, astronomiya va tarixiy asarlar bilan birga pedagogik yondashuvlar ham mujassam. Ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. “Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir” deb aytadilar.

Al-G‘azzoliy esa ta’limning axloqiy jihatiga urg‘u bergan. Unga ko‘ra, o‘qituvchi shogirdga nafaqat ilm, balki yaxshi fazilatlar – halollik, sabr, mehr-muhabbat, diyonat va adolatni ham o‘rgatishi kerak..

Sharqda mudariss faqat bilim beruvchi emas, balki o‘z shogirdlari uchun ma’naviy ustoz, hayotiy yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lgan. Uning ilmi bilan bir qatorda, axloqi, muomalasi, halolligi, adolatparvarligi ham muhim mezon sifatida qaralgan.



Allomalar fikricha, yaxshi mudariss – bu o‘zining ilmiy bilimini turli pedagogik metodlar orqali shogirdga yetkazishni biladigan, mehribon, sabrli va shijoatli inson bo‘lishi zarur.

Bu fikrlar orqali Sharq allomalari shunchaki bilim o‘rgatuvchi emas, balki tarbiya beruvchi, hayot yo‘lini ko‘rsatuvchi ustoz obrazini yaratganlar.

Bugungi kunda ta‘lim tizimining zamonaviylashuvi va innovatsion yondashuvlar fonida ham Sharq allomalarining ilg‘or pedagogik qarashlari o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti. Masalan:

Individual yondashuv (Ibn Sino); Tarbiyaviy maqsadlar asosida ta‘lim berish (Al-G‘azzoliy); Axloqiy poklik va namunaviy ustoz shaxsi (Al-Farobiy); Amaliy-uslubiy o‘rgatish (Beruniy).

Zamonaviy o‘qituvchi uchun bu fikrlar nafaqat tarixiy yodgorlik, balki real faoliyatda yo‘l ko‘rsatkich bo‘la oladi.

Xulosa

Sharq allomalari asarlarida ilgari surilgan pedagogik qarashlar, ayniqsa mudarisslar mehnatiga bergan baholari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular ustozlikning eng yuksak mezonlarini belgilab bergan: halollik, mehr, bilim, sabr, namunaviylik va adolat.

Ushbu qadriyatlar asosida zamonaviy o‘qituvchilar faoliyat olib borishsa, ta‘lim-tarbiya sifati ham yuksaladi. Institut, maktab yoki oliy ta‘lim muassasalarida Sharq allomalari qarashlarini pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Pedagogik ta‘lim muassasalarida Sharq allomalari pedagogik qarashlari asosida maxsus kurslar joriy etish; Maktab va institutlarda o‘qituvchilar uchun ma‘naviy-ma‘rifiy seminarlar o‘tkazish; Ilg‘or o‘qituvchilarni mukofotlashda “mudarisslik” an‘analarini targ‘ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O. Husanboydan, J Hasanboyeva H. Homidov "Pedagogika tarixi" Toshkent-2004 35-bet.



1. Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet
2. Al-Forobiy "Fozil odamlar shahri" haqidagi asari Toshkent "Fan" 1993
3. Mahkamova G. Pedagogik tafakkur tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016
4. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: “Sharq”, 2000.
5. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: “Fan”, 1975
7. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya. -T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. - 410 b.
8. Ochilov Malla. Muallim qalb me`mori. – T.: O`qituvchi, 2000.
9. Karimova V. “Mustaqil fikrlash” metodik qo‘llanma. -T.: - 2000 y.

Elektron ta'lim resurslari:

13. www.tdpu.uz
14. www.pedagog.uz
15. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
16. [www.edu. uz](http://www.edu.uz)
17. tdpu - INTRANET. ped.
18. www.google.co.uz